



INTERTEKSTUALLIK VA UNING TURLARI

M. J.Amonova

magistrant, Buxoro davlat universiteti.

usmonovamehribonu@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezis adabiyotshunoslikda muhim nazariy tushunchalardan biri bo'lgan intertekstuallik va uning turlarini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda intertekstuallik atamasining kelib chiqishi, ilmiy termin sifatida shakllanish jarayoni hamda uning Yuliya Kristeva qarashlarida ifodalanishi tahlil qilinadi. Muallif Kristevaning intertekstuallik konsepsiyasini M.Baxtinning dialogizm g'oyasi bilan bog'liq holda yoritadi. Shuningdek, rus olimi N.Fateeva tomonidan ishlab chiqilgan intertekstual birliklar tasnifi, N.Pyego-Groning intertekstuallik turlari hamda Jerar Jennetning transtekstuallik haqidagi keng qamrovli yondashuvi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Intertekstuallik, matnlararo aloqa, dialogizm, sitata, alluziya, reminissensiya, transtekstuallik, badiiy matn, adabiy tahlil, nazariy yondashuv.

Intertekstuallik bu bir matnning boshqa bir matn bilan aloqasi, undagi izlari, iqtibos yoki g'oyalari orqali yuzaga keluvchi g'oya almashunuvidir. Ya'ni qisqa qilib aytganda, intertekstuallik bu matnning boshqa matnlarga tayanishi, ulardan iqtibos yoxud ishora olishidir.

Y.Kristeva M.Baxtinning dialogizm g'oyasidan ilhomlanib, matnlararo munosabatlarni yanada tizimli ravishda izohlashga harakat qilgan. "Har qanday matn sitatalar mozaikasidan tuzilgan va har qanday matn boshqa bir matn bilan o'zaro aloqada bo'ladi"[1], - deya Y.Kristeva ta'rif bergan. Umuman olganda, Intertekstuallik janri adabiyotshunoslar va olimlar tomonidan o'rganish obyekti bo'lib kelmoqda. Turli davrlarda olimlar intertekstuallik to'g'risida o'zlarining bir-biridan farqli qarashlarini bayon qilganlar va intertekstuallikni bir qator turlarga bo'lganlar.

Rus tilshunosi Fateeva intertekstual birliklarni quyidagicha tasniflaydi:

1. Allyuziya -boshqa bir matnga ishora ("U Odissey kabi o'z yo'lini topishga harakat qildi" (Homerning "Odissey" asariga ishora)
2. Reminissensiya -syujet o'xshashligi, boshqa bir matnning bevosita takrorlanishi (Shahar osuda edi, lekin ichki vahshatni his qilardingiz" (Dostonlardan mashhur manzarani eslatadi)
3. Epigraf -asarning kirish qismidagi boshqa bir muallifdan keltirilgan iqtibos (Har bir inson o'z taqdirining arxitektori." — Benjamin Franklin[2])
4. Sarlavha (bob, bo'lim yoki asarning nomi)
5. Havola -matnda boshqa manba, asar yoki muallifga ishora qilish((Qarang: Baxtin, 1975) yoki "Navoiy, Mahbub-ul Qulub, 1483)
6. Aforizmlar -hikmatli so'zlar ("Bilim — kuchdir" (muallif: Francis Bacon)[3])



7. Maqol, matal

Fateevaning fikriga ko'ra, muallif yaratgan matnida o'z "men"ini namoyon qiladi va shu bilan birga, identifikatsiyalar, qarama-qarshiliklar bilan birga o'ziga xos intertekstual model yaratadi.

N.Pyego-Gro esa o'zining tadqiqotlarida uning turlarini to'rtga bo'ladi:

1. Iqtibos (sitata).
2. Referensiya.
3. Qo'shtirnoqsiz ko'chirma.
4. Alluziya

Pyego-Gro intertekstuallikni matnning madaniy va adabiy xotira bilan uzviy aloqasi sifatida talqin qilinadi. Uning fikricha, intertekstlar matn ma'nosini boyituvchi faol mexanizm bo'lib, ularning to'liq ochilishi o'quvchining interpretative faoloyatga bog'liqdir.

Jerar Jennet o'zining "Palimpsests: Literature in the Second Degree" kitobida matnlarning o'zaro aloqalarni kengroq ekanligini ta'kidlaydi va uni transtekstuallik yoki transtekstual aloqalar deb nomlaydi. *Intertekstuallik* (bir matnda boshqa bir matnning mavjudligi), *paratekstuallik* (matnning sarlavha, epigraf, muqova, bolim nomlari), *metatekstuallik* (boshqa matnni sharhlash, unga izoh berish) *gipertekstuallik* (boshqa matnga asoslanib yangi matnni yaratish) *arxitekstuallik* (matn qaysi adabiy tipga kirishini ko'rsatishi) kabi 5 ta turga ajratadi.

Jennetning intertekstuallik borasidagi fikri Kristevanikidan farqli ravishda intertekstuallikni cheklangan va aniq shakllar bilan izohlaydi. Jennetning fikricha, har qanday o'xshashlik intertekstuallik emas-u ongli va aniqlanadigan bog'liqlik bo'lishi kerak. Intertekstni anglash orqali matnning ikkinchi darajali ma'nosi ochiladi. Uning nazariyasi matnlararo munosabatlarni aniqlik va tasnif asosida o'rganishga imkon beradi.

Umuman olganda, intertekstuallik tadqiqi matnni chuqurroq tushunishga, uning badiiy va nazariy kontekstini aniqlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, zamonaviy adabiyotshunoslikda muhim ilmiy yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, intertekstuallik matnni chuqur va tizimli tahlil qilishga xizmat qiluvchi muhim nazariy vosita hisoblanadi. U o'quvchi va tadqiqotchining matnga bo'lgan munosabatini faollashtiradi, mazmunni kengroq madaniy va nazariy kontekstda anglashga imkon yaratadi. Shu bois intertekstuallik zamonaviy adabiyotshunoslikda dolzarb va samarali ilmiy yo'nalish sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kristeva, J. (1980). *Desire in Language: A Semiotic Approach to Literature and Art*. New York: Columbia University Press.



2. Franklin, B. (2006). *The Autobiography of Benjamin Franklin*. New Haven: Yale University Press.
3. Bacon, F. (2000). *The Advancement of Learning*. Oxford: Oxford University Press.
4. Gennette, G. (1997) *Palimpsests: Literature in the second degree* (C. Newman & C. Doubinsky, Trans.) .University of Nebraska Press.
5. Фатеева, Н. А. (2007). *Интертекст в мире текстов: Контрапункт интертекстуальности*. Москва: КомКнига.
6. Naimova, A. M., & Baxronova, B. D. (2025). THE PECULIAR FEATURES OF MYTH MAKING TOOL IN PROSE. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 3(35), 66-69.
7. Naimova, A. M., & Yuldoshova, M. U. (2025). METAFICTIONAL MAGIC: WHEN NARNIA SPEAKS TO ITS READERS. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 3(31), 51-56.
8. Naimova, A. M. The Connection Of Mythopoeia Narrative Genre With Historical Inversion In *Cloud Atlas* by David Mitchell. *Best journal of innovation in science, research and development*, 3(2), 494-497.
9. O'rinova, Z. J. (2023). Badiiy matnni tushunishda intertekstual birliklarning o'rni. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 3(1), 98–102.